



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<a href="#">Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</a>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<a href="#">Sarvinoz Abdulhakimova</a>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<a href="#">Shahnoza Muhammadiyeva</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<a href="#">Shopulatova Nasiba Umirovna</a>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<a href="#">Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</a>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<a href="#">Temirov Murodjon Anvarovich</a>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<a href="#">Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</a>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<a href="#">Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<a href="#">Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</a>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<a href="#">Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</a>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<a href="#">Veronica Khatamova</a>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<a href="#">Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</a>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<a href="#">Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</a>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<a href="#">Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</a>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<a href="#">Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</a>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<a href="#">Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</a>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<a href="#">Xoldorova Mashxura G'ulomovna</a>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<a href="#">Xudaybergenova Zuxra Isakovna</a>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<a href="#">Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</a>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<a href="#">Рахимова Шахзода Равшановна</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<a href="#">Imamova Nasiba Xurramovna</a>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	



# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NEYROGIMNASTIKA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Saidova Nigora Olimovna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti v.b.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Neyrogimnastikaning bola shaxsining intellektual, jismoniy va emotsional rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, neyrogimnastika mashqlarining turlari, ularni tashkil etish metodikasi hamda amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, neyrogimnastika bolalarda diqqat, xotira, nutq va motorika rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlaydi.

**Kalit so'zlar:** neyrogimnastika, maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiya, miya yarim sharlari, motorika, diqqat, nutq rivoji, innovatsion yondashuv.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical and psychological foundations of the use of neurogymnastics technologies in preschool educational organizations. The impact of neurogymnastics on the intellectual, physical, and emotional development of a child's personality is analyzed. The types of neurogymnastics exercises, the methodology of their organization, and their practical significance are also discussed. According to the results of the study, neurogymnastics effectively supports the development of attention, memory, speech, and motor skills in children.

**Key words:** neurogymnastics, preschool education, pedagogical technology, cerebral hemispheres, motor skills, attention, speech development, innovative approach.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы использования нейрогимнастических технологий в дошкольных образовательных организациях. Анализируется влияние нейрогимнастики на интеллектуальное, физическое и эмоциональное развитие личности ребёнка. Также рассматриваются виды нейрогимнастических упражнений, методика их организации и практическое значение. По результатам исследования нейрогимнастика эффективно способствует развитию внимания, памяти, речи и моторики у детей.

**Ключевые слова:** нейрогимнастика, дошкольное образование, педагогическая технология, полушария головного мозга, моторика, внимание, развитие речи, инновационный подход.

## KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy pedagogika bolaning nafaqat bilim olishi, balki uning psixik, jismoniy va emotsional rivojlanishini ham muhim omil sifatida e'tirof etadi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday samarali texnologiyalardan biri neyrogimnastika texnologiyalaridir.

Neyrogimnastika – bolaning bosh miya faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi maxsus mashqlar tizimi bo'lib, u miya yarim sharlarining uyg'un ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu texnologiya orqali bolalarda diqqat, xotira, tafakkur, nutq va harakat koordinatsiyasi rivojlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda organizm va nerv tizimining jadal rivojlanish davrida neyrogimnastika yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Neyrogimnastika va bolalar rivojlanishi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.R. Luriya miya faoliyati va psixik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslagan. L.S. Vigotskiy bolaning rivojlanishida ta'lim va faoliyatning ahamiyatini ta'kidlagan. J. Piaje esa bolalarning intellektual rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilgan.

Neyrogimnastikaning amaliy asoslari Pol Dennison va Geyl Dennison tomonidan ishlab chiqilgan "Brain Gym" dasturida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida miya yarim sharlarining uyg'un faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlarning samaradorligi asoslab berilgan.

Mavjud tadqiqotlarda neyrogimnastikaning umumiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda neyrogimnastika texnologiyalarining bolalar rivojlanishidagi ahamiyati va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash hamda ilmiy manbalarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida neyrogimnastika texnologiyalarining nazariy asoslari va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Neyrogimnastika" tushunchasi ikki qismdan iborat bo'lib, "nevro" – asab tizimi va miya faoliyati, "gimnastika" esa maxsus mashqlar tizimini anglatadi. Mazkur texnologiya bolaning psixomotor rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, harakat va tafakkur uyg'unligini shakllantiradi.

Neyrogimnastikaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- miya yarim sharlarining uyg'un faoliyatini rivojlantirish;
- kognitiv qobiliyatlarni takomillashtirish;
- psixomotor jarayonlarni faollashtirish;
- bolani maktab ta'limiga tayyorlash.

Neyrogimnastika mashqlari natijasida bolalarda diqqatning barqarorlashuvi, xotiraning mustahkamlanishi, nutq rivoji, mantiqiy tafakkurning shakllanishi hamda mayda va yirik motorikaning rivojlanishi kuzatiladi.

Neyrogimnastika texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya bolaning miya faoliyatini faollashtirish, psixik jarayonlarini rivojlantirish hamda jismoniy va intellektual imkoniyatlarini uyg'un shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bola organizmi va nerv tizimi jadal rivojlanishi sababli neyrogimnastika mashqlari yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Neyrogimnastikaning ilmiy-pedagogik asoslari, avvalo, neyropsixologik, psixologik va pedagogik tamoyillarga tayangan holda shakllangan. Neyropsixologik nuqtai nazarga ko'ra, inson bosh miyasi ikki yarim shardan iborat bo'lib, ularning har biri alohida vazifalarni bajaradi. Chap yarim shar, asosan, mantiqiy fikrlash, nutq va analiz jarayonlari uchun mas'ul bo'lsa, o'ng yarim shar tasavvur, ijodkorlik va hissiy faoliyatni boshqaradi. Neyrogimnastika mashqlari aynan shu ikki yarim shar faoliyatini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Natijada bolaning tafakkuri, diqqati va xotira jarayonlari faol rivojlanadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, maktabgacha yosh bolaning psixik rivojlanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda diqqat, idrok, tafakkur, xotira va nutq faol shakllanadi. Harakat va fikrlashning o'zaro bog'liqligi bolaning psixik taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Neyrogimnastika mashqlari bolaning harakat faoliyatini faollashtirish orqali uning fikrlash jarayonlarini ham rivojlantiradi. Shu sababli mashqlar bolaning umumiy psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, neyrogimnastika rivojlantiruvchi ta'lim, individual yondashuv hamda faoliyatga asoslangan pedagogik texnologiyalar tamoyillariga asoslanadi. Mashqlarni o'yin shaklida tashkil etish bolalarda qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi, mashqlarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida olib borishi muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida neyrogimnastikaning ahamiyati juda katta. Avvalo, ushbu texnologiya bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashqlar orqali bolalarda fikrlash tezligi, mantiqiy tafakkur va muammoni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, neyrogimnastika nutq rivojlanishiga



ham samarali yordam beradi. Ayniqsa, barmoq gimnastikasi va koordinatsion mashqlar nutq apparatini faollashtirib, lug'at boyligini oshiradi hamda talaffuzni yaxshilaydi (1-Jadval).

1-jadval: **Neyrogimnastika mashqlarining bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi**

Ko'rsatkich	Neyrogimnastikadan oldin	Neyrogimnastikadan keyin
Diqqat	O'rtacha	Yuqori
Xotira	O'rtacha	Yaxshi
Nutq rivoji	Past/O'rtacha	Yaxshi
Mayda motorika	O'rtacha	Yuqori
Mantiqiy tafakkur	O'rtacha	Yaxshi

Neyrogimnastika bolalarning jismoniy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Mashqlar yordamida koordinatsiya, muvozanat, moslashuvchanlik va motorika rivojlanadi. Ayniqsa, mayda motorikaning rivojlanishi bolani yozishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, neyrogimnastika bolalarning emotsional holatini yaxshilaydi, stress va zo'riqishni kamaytiradi hamda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Mashg'ulotlarning qiziqarli va o'yin tarzida tashkil etilishi bolalarda ijobiy emotsional muhit hosil qiladi.

Mazkur texnologiya maktabga tayyorlash jarayonida ham samarali vosita hisoblanadi. Neyrogimnastika mashqlari bolalarda diqqatni jamlash, topshiriqlarni mustaqil bajarish va o'quv faoliyatiga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli u bolalarning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Neyrogimnastika texnologiyalarining asosiy turlariga kross-harakat mashqlari, barmoq gimnastikasi, nafas mashqlari, ko'z mashqlari hamda ritmik mashqlar kiradi. Kross-harakat mashqlari tananing qarama-qarshi qismlarini birgalikda ishlatishga asoslanib, miya yarim sharlarining o'zaro aloqasini mustahkamlaydi. Barmoq gimnastikasi esa mayda motorikani rivojlantirish bilan birga nutq markazlarini ham faollashtiradi. Nafas mashqlari miyaga kislorod yetib borishini yaxshilasa, ko'z mashqlari vizual idrok va o'qishga tayyorgarlikni rivojlantiradi. Ritmik mashqlar esa harakat va musiqaning uyg'unligi orqali emotsional hamda eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Neyrogimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishda metodik tamoyillarga amal qilish muhimdir. Mashqlar muntazam va tizimli ravishda olib borilishi kerak. Dastlab oddiy mashqlar tanlanib, keyinchalik murakkablashtirib boriladi. Mashg'ulotlarda bolaning yosh va individual xususiyatlari, albatta, hisobga olinadi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish esa bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Tarbiyachi mashqlarni to'g'ri ko'rsatishi, bolalarni rag'batlantirishi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi lozim.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, neyrogimnastika mashqlarini muntazam bajarish bolalarning diqqat barqarorligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, nutqini rivojlantiradi hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, giperfaollik, diqqat yetishmovchiligi va nutqiy qiyinchiliklari mavjud bolalarda ham ijobiy natijalar kuzatiladi. Shu sababli neyrogimnastika maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy va samarali pedagogik texnologiyalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanish bolalarni har tomonlama rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Mazkur texnologiya bolaning jismoniy, psixologik, intellektual va emotsional rivojlanishini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Neyrogimnastika mashqlari orqali bolalarning bilish faoliyati faollashadi, diqqat va xotira rivojlanadi, maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasi oshadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim amaliyotida neyrogimnastika texnologiyalaridan keng foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari." – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Neyrogimnastika mashqlari va ularning bolalar rivojlanishidagi o'rni // Maktabgacha ta'lim jurnali. – 2023. – № 4. – B. 45–52.
4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
5. Davlat maktabgacha ta'lim standarti. – Toshkent, 2022.
6. Neyropsixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 256 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.